

“Temurbeklar maktabi”da vatanparvar yoshlar tarbiyalanadi



Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda barpo etilayotgan “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi va Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasining yangi binolari bilan tanishdi.

Mamlakatimizda yuksak intellektual salohiyatga, zamonaviy fikrlash qobiliyati va dunyoqarashga ega, davlatimiz manfaatlari hamda suverenitetini fidokorona himoya qilishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2019-yil 28-iyundagi “O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori bilan harbiy sohadagi vazirlik va idoralar tarkibida “Temurbeklar maktablari”ni tashkil etish belgilangan edi.

“Temurbeklar maktabi” chinakam vatanparvar avlodlarni kamol toptiruvchi harbiy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Mazkur dargohda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga sodiq, halol, vatanparvar, milliy g'urur tuyg'usi asosida kamol topgan, buyuk ajdodlarimiz, avvalo, Amir Temurning bebaho merosini chuqur o'rgangan, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega o'quvchilar tarbiyalanadi.

Qarorga muvofiq, “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseylarini tashkil etish va ularning o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. 2020/2021 o'quv yilidan mazkur ta'lim muassasalariga o'quvchilar qabul qilindi.

Poytaxtimizdagi “Temurbeklar maktabi”ga ham tanlov asosida 100 nafar, shuningdek, imtiyoz asosida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, vafot etgan harbiy xizmatchilar va ko'makka muhtoj oilalarning 10 nafar farzandi, jami 110 nafar o'quvchi qabul qilindi.

O'quv dargohining shaxsiy tarkibi ham tanlov orqali shakllantirildi. Ya'ni, 660 nafar o'quvchilar orasidan 21 nafar yuqori bilimli va malakali pedagog kadrlar tanlab olindi.

Qarordagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun ilgari harbiy-akademik litseylar va “Temurbeklar maktablari” faoliyati o'rganildi. Natijada “Temurbeklar maktabi”ga xos o'quv muassasasining aniq dasturi ishlab chiqildi. Bunda fanlararo integratsiya va intensiv ta'lim inobatga olingan bo'lib, bir-biriga uzviy bog'liq fanlar integratsiya asosida o'qitiladi. Natijada ikki yillik ta'lim standartini bir yilda o'zlashtirish ko'zda tutilgan.

Maktab ikki yillik bo'lib, ona tili va xorijiy tillar chuqur o'rgatiladi. O'quvchilar ikkinchi yili mustaqil fanlarga yo'naltiriladi.

Davlatimiz rahbariga “Temurbeklar maktabi” faoliyati, o'quv jarayoni, qurilayotgan yangi bino va inshootlar haqida ma'lumot berildi.

Maktab uchun o'quv korpusi, yotoqxona, oshxona barpo etilmoqda, akademiyaning mavjud binolari rekonstruksiya qilinmoqda. Majmuada, shuningdek, jismoniy-harbiy mashg'ulotlar maydoni, stadion, avtodrom, plas va boshqa obyektlar bo'ladi.

Prezidentimiz maktabda ona tili va tarix fanlaridan tashqari, xorijiy tillarni mukammal o'qitish zarurligini ta'kidladi.

- Bu dargohda haqiqiy vatanparvar, xalqini, Vatanini sevadigan avlod tarbiyalanishi zarur. Maktabda shunday sharoit yaratish kerakki, bu yerda ta'lim olgan yoshlar harbiy sohalar kadrlar zaxirasini to'ldirishi lozim, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'quvchilarga yurtimiz tarixi va milliy qadriyatlarimizni chuqur o'rgatish, darslarga har bir fan bo'yicha yetakchi pedagoglarni jalb etish muhimligini ta'kidladi.

Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasida bugungi zamonaviy tahdidlarga qarshi tura oladigan mutaxassis kadrlar tayyorlash yuzasidan tavsiyalar berildi.



Manba